


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kelgusida rag'batlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2017 yilning yanvar–dekabrda 3,2 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) sub'yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 143,3 foizga ko'paydi. Mazkur kichik biznes sub'yektlarining eng ko'p qismi sanoat tarmog'ida (27,4%), savdo sohasida (20,9%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (14,1%) va qurilishda tarmog'ida (10,3%) tashkil etilgan.

2017 yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2017 yilning yanvar–dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5088,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 55,5 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 103,2 foizni tashkil etdi;



– 1855,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 56,1 foizi) o`zlashtirildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 94,2 foizni tashkil etdi;



– 2171,1 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 92,4 foizi) bajarildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 104,7 foizni tashkil etdi;



– 6301,2 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 76,5 foizi), 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 101,0 foizni tashkil etdi;



– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 93,0 foizi yoki 8385,2 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 100,6 foiz) shakllantirildi;

– 212,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 82,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi, bu esa 2016 yilga nisbatan 99,5 foizni tashkil etdi;



– avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,8 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 93,8 foizi);


– yo`lovchi aylanmasining esa 102,7 foizga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 97,4 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



– 1286,3 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 84,5 foizi) (o`rish sur`ati 102,5 foiz);

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 82,5 foizni (2016 yilning yanvar–dekabrida 82,4 foiz), sanoatda – 55,5 foizni (60,1 foiz), xizmatlarda – 76,5 foizni (75,4 foiz), qurilishda – 92,4 foizni (94,5 foiz) va bandlikda – 84,5 foizni (84,5 foiz) tashkil etdi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda)




Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, sanoat tarmog'idagi respondentlarning 22,7 foizi iqtisodiy vaziyatni – qulay va 63,6 foizi esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda – 50,0 foiz va 16,7 foiz, savdo sohasida – 33,3 foiz va 61,1 foiz, xizmatlar sohasida – 29,2 foiz va 37,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa – 36,3 foiz va 45,5 foizni tashkil etganligini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashadiganlar sanoatda – 13,1 foiz, qurilishda – 33,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 18,2 foiz, savdoda – 5,6 foiz, xizmatlarda – 33,3 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2017 yil IV–chorak uchun



Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin 3 oyda baholanishi



Kuzatuv natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.